



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagi qaysi mamlakat shimolda Fransiya, Avstriya va Shveysariya bilan chegaradosh?

- A) Italiya B) Sloveniya C) Ispaniya D) San-Marino

2. Quyidagi xaritada 1 va 2 raqam bilan qaysi davlatlar ko'rsatilgan?



- A) Yaman va Tailand B) Ummon va Vyetnam
C) BAA va Malayziya D) Qatar va Myanma


3. Hamsin shamoli qaysi materik uchun xos?

- A) Yevrosiyo B) Afrika C) Janubiy Amerika D) Avstraliya

4. Transantarktida tog' tizmasi qaysi burmalanishda ko'tarilgan?

- A) Alp B) Baykal C) Kaledon D) Gersin

5. Quyidagi xarita-sxemada 1 va 4 raqamlari bilan qaysi dengiz oqimlari ko'rsatilgan?



- A) Shimoliy Passat va Golfstrim B) Somali va Shimoliy Tinch okean
C) Musson va Kurosio D) Bengal va Kanar






6. Malayziya hududining necha foizini ekvatorial o'rmonlar tashkil etadi?

- A) 50% B) 80% C) 70% D) 60%

7. Grafikda ko'rsatilgan B nuqtaning mutlaq balandligini aniqlang.




- A) 200 m B) 250 m C) 300 m D) 150 m

8. Rio-Grande daryosi qaysi qo'ltiqqa quyiladi?

- A) Meksika B) Kaliforniya C) Gudzon D) Alyaska

9. Quyidagi rasmda berilgan A nuqtaning geografik koordinatasini aniqlang.



- A) 42° sh. k., 110° shq. u. B) 48° sh. k., 135° shq. u.
C) 44° j. k., 105° g' u. D) 42° j. k., 110° g' u.

10. Shari daryosining mansabini aniqlang.

- A) Gvineya qo'ltig'i B) Akoba qo'ltig'i C) Chad ko'li D) Nyasa ko'li

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyidagi qaysi ilmiy-tadqiqot stansiyasi Ross dengizi sohillariga yaqin joylashgan?

- A) Vostok B) Mak-Merdo C) Sanae D) Mirniy



12. O'rta Osiyoning eng yirik daryolari va ularning uzunliklari mos ravishda berilgan javobni aniqlang.





1	Amudaryo	a	3019 km
2	Sirdaryo	b	2540 km
3	Ili	c	1384 km

A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-c C) 1-a, 2-b, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-a

13. Quyidagi qaysi ko'lining nomi hindular tilida "suv" degan ma'noni anglatadi?

A) Atabaska B) Michigan C) Ontario D) Vinnipeg

14. Qaysi variantda Afrikaning ekvatorial iqlim mintaqasiga xos iqlim ko'rsatkichlari tasvirlangan?



15. Kichik Osiyo yarimoroli Osiyoning qaysi qismida joylashgan?

A) G'arbida B) Janubida C) Sharqida D) Janubi-sharqida

16. Fransiya aholisining soni 65,1 mln kishi, maydoni 551,6 ming km² bo'lsa, mamlakat aholisining o'rtacha zichligini aniqlang.

A) 182,2 kishi B) 145,1 kishi C) 118,0 kishi D) 203,3 kishi

17. Xaritada 4 va 5 raqamlari bilan qaysi davlatlar ko'rsatilgan?






A) Peru va Ekvador
C) Surinam va Urugvay

B) Kolumbiya va Venesuela
D) Boliviya va Paragvay

18. Germaniya ko'mirning asosiy qismini qaysi mamlakatdan import qiladi?

A) Avstriya B) Fransiya C) Ukraina D) Avstraliya

19. Quyidagi rasmda Karib dengizi va Kaliforniya qo'ltig'i qaysi raqamlar bilan belgilanganligini aniqlang.



A) 4 va 1 B) 1 va 5 C) 4 va 5 D) 1 va 3

20. Quyidagi qaysi tarmoq agrosanoat majmuasi tarkibiga kirmaydi?

A) Neft kimyosi B) Qishloq xo'jaligi C) Yengil sanoat D) Oziq-ovqat sanoati

21. Farg'ona vodiysidagi shaharlar va ularning balandliklari mos ravishda berilgan javobni aniqlang.


1	Andijon	a	449 m
2	Farg'ona	b	496 m
3	Namangan	c	578 m

A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-c, 2-a, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a

22. Quyidagi qaysi aholi manzilgohi Toshkent aglomeratsiyasi tarkibiga kirmaydi?

A) Sijjak B) Baxt C) Do'stobod D) Olmazor

23. Quyidagi yozuvsiz xaritada 1 va 3 raqamlari bilan qaysi dengizlar ko'rsatilganini aniqlang.



A) Arabiston va Bengaliya
C) Baren va Filippin

B) Qizil va Janubiy Xitoy
D) Arabiston va Andaman



24. Sabzavotchilik, kartoshkachilik va polizchilik quyidagi qaysi shahar atrofida katta maydonni egallamaydi?

- A) Zarafshon B) Toshkent C) Andijon D) Samarqand


25. Okeanlar va ularning dengizlari mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

1	Tinch okean	a	Skosh, Ueddell, Lazarev
2	Atlantika okeani	b	Chukotka, Bofort, Baffin
3	Hind okeani	c	Ross, Amundsen, Bellinsgauzen
4	Shimoliy Muz okeani	d	Hamdo'stlik, Kosmonavtlar, Riser-Larsen

- A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

26. Quyidagi grafikdan foydalanib, 15 kunlik o'rtacha havo haroratini aniqlang.



- A) 23,8°C B) 24,3°C C) 25,1°C D) 24,5°C

27. 500 kVt/soat elektr energiya olish uchun necha kg toshko'mir kerak bo'ladi?

- A) 1000 kg B) 500 kg C) 250 kg D) 100 kg

28. Quyidagi rasmda 2 va 4 raqamlari bilan qaysi tog' tizmalari ko'rsatilgan?







- A) Nurota va Morguzar B) Turkiston va Nurota
C) Turkiston va Zarafshon D) Morguzar va Zarafshon



29. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos tushadigan to'g'ri javobni aniqlang.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosi (import, umumiy hajmga nisbatan % hisobida, 2017-yil)				
I	O'zbekiston			
II	Rossiya	a)		5,2 %
III	Xitoy	b)		7,7 %
IV	Qozog'iston	c)		21,0 %
V	Turkiya	d)		20,8 %




30. Jahonda bug'doy yetishtirishda yetakchi mamlakatlar ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSH, Kanada
C) Xitoy, Rossiya, Braziliya, Argentina, AQSH

- B) AQSH, Hindiston, Kanada, Rossiya, JAR
D) Kanada, AQSH, Rossiya, Hindiston, Polsha

31. Xaritada 2 raqami bilan ko'rsatilgan davlatning hududini relyef jihatdan qaysi daryolar ikkiga bo'ladi?



A) Zambezi va Oranj

B) Senegal va Volta


C) Shari va Limpopo

D) Niger va Benue






32. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan A nuqta orolning eng baland cho'qqisiga nisbatan ufqning qaysi tomonida joylashganligini aniqlang.




- A) shimol B) shimoli-sharq C) shimoli-g'arb D) janubi-g'arb

33. Janubiy Amerika va Tinch okean litosfera plitalari rasmda qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 1 va 2 B) 7 va 5 C) 3 va 5 D) 4 va 6


34. Agar siz A tepalikka chiqsangiz, B tepalikka nisbatan necha metr balandga ko'tarilgan bo'lasiz?




- A) 300 m B) 200 m C) 150 m D) 600 m



35. Quyidagi grafiklarning qaysi birida shamolning tezligi (x) va havo bosimlaridagi farq (y) orasidagi bog'lanish qonuniyati to'g'ri tasvirlangan?



36. Quyidagi yozuvsiz xaritada qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar (O'rta dengiz tipidagi) hamda sernam ekvatorial o'rmonlar tabiat zonalari qaysi raqamlar bilan belgilanganligini mos ravishda toping.




- A) 4 va 1 B) 3 va 1 C) 3 va 4 D) 2 va 1


37. Markaziy Osiyo davlatlari aholisi qaysi oraliq irqqa mansub?

- A) Pomir-farg'ona B) Efiop C) Ural D) Avstraloid

38. Quyidagi grafiklarning qaysi birida ufq chegarasining kengayishi (x) va joyning balandligi (y) orasidagi bog'lanish qonuniyati to'g'ri tasvirlangan?



39. Rasmda 3 raqami bilan ko'rsatilgan okean oqimi ta'sirida quyidagi qaysi cho'l shakllangan?



- A) Sahroyi Kabir B) Atakama C) Tar D) Namib

40. Antarktidadagi ilmiy stansiyalar va ularning qaysi davlatga tegishli ekanligi mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

Ilmiy stansiyalar		Davlatlar	
1	Mak-Merdo	a	AQSH
2	Vostok	b	Rossiya
3	Keysi	c	Avstraliya
4	Signyu	d	Buyuk Britaniya
5	Sanae	e	JAR

- A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d, 5-e B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e
C) 1-d, 2-c, 3-a, 4-e, 5-b D) 1-d, 2-c, 3-e, 4-b, 5-a

